

HAMID OLIMJON IJODI VA MUSIQA.

(Shoirning musiqaga oid bo'lgan asarlari misolida)

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Musiqashunoslik yo'nalishi

2-kurs talabasi **Hayitova Feruza**

Ilmiy rahbar: **Mohina Abrorova**

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan adib, zamonasining ilg'or shoirlaridan biri bo'lgan Hamid Olimjonning ijodiy merosi va musiqaga ko'chgan asarlari tog'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: shoir, o'zbek, musiqa, adabiyot, she'r, musiqiy, qo'shiq.

Annotation: This article presents information about the creative legacy and musical works of Hamid Olimjon, a writer who left an indelible mark on Uzbek literature and one of the leading poets of his time.

Key words: poet, Uzbek, music, literature, poetry, musical, song

Аннотация: В статье представлена информация о творческом наследии и музыкальных произведениях Хамида Олимжона-писателя, оставившего неизгладимый след в узбекской литературе, одного из ведущих поэтов своего времени.

Ключевые слова: поэт, узбек, музыка, литература, поэзия, мюзикл, песня

O‘zbek adabiyoti — xalqning ruhini, tarixini va tuyg‘ularini asrlar davomida ifodalab kelayotgan bebaho xazinadir. Shoirlar, yozuvchilarning bu merosni rivojlanib, hozirgi kungacha yetib kelishida hissalarini katta. Ularning yaratgan asarlari orqali jamiyatning o‘zligini anglashi, dunyoqarashi kengayishi ortadi. O‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan namoyondalar orasida Hamid Olimjon va Zulfiya alohida o‘rin egallaydi. Yozgan she'r-u dostonlari xalqimiz orasida hanuzgacha saqlanib kelinmoqda. Ularning yaratgan asarlari nafaqat adabiyotda balki musiqada ham katta ahamiyatga ega.

Hamid Olimjon she'riyat, dramaturgiya, badiiy tarjima, tanqid, adabiyotshunoslik sohalarida ijod qilgan va o‘z mavqeiga ega bo‘lgan. Shoir 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tavallud topgan. Dastlab Narimonov nomidagi boshlang‘ich maktabda so‘ng, 1923-1926-yillar davomida Samarqand pedagogika bilim yurtida, 1926-1931-yillarda esa Pedakademiya tahsil olgan. Hamid Olimjon talabalik yillaridayoq she'riyatga mehr qo‘ygan.

Uning ijodida o'zbek xalqining tarixi, hayoti, madaniy va ma'naviy o'zgarishlar aks etgan. Insonparvarligi, xalqsevarligi bilan jamiyat hayotida chuqur iz qoldirgan. Shu bois, uning asarlari hozirgi kungacha kitobxonlar orasida katta mavqega ega va ular uchun kerakli manba sifatida xizmat qilib kelmoqda. Shoir hayoti va ijodiy faoliyati davomida ikki she'riy drama, to'rtta ballada, to'qqizta doston, ikki yuzga yaqin she'rlar, o'nlab maqolalar yaratgan.

Hamid Olimjonning she'rlari o‘qilganda, satrlarning tabiiy ohangi va vazni musiqiy oqimga o‘xshab jaranglaydi. Shoir so‘zlar orqali musiqani eshittira olgan. Ularning she'rlari shunchaki so‘zlar to‘plami emas, balki ichida musiqaning jarangi, yurakning ritmi, tuyg‘ularning ovozi yashiringan badiiy asarlardir. Shoirning she'rlariga ko‘plab qo‘shiqlar, romanslar yaratilgan. Uning mashhur "**Eng gullagan yoshlik chog'imda**" she'ri bunga yaqqol misol bo'ladi. Mazkur she'r taniqli kompozitor Yevgeniy Shiryayev tomonidan bastalangan va qo‘shiq tarzida mashhur bo‘lib, hozirgi kungacha xalqning

ilmiy –amaliy anjuman

qalbidan joy olgan. Ushbu qo'shiq o'zbek retro filmlari qatoridan o'rin egallagan mashhur "Chinor ostidagi duel"da yangragan. Qo'shiqni eshitganimizda, albatta, shoirning yoshlik chog'larini eslagani, muhabbat to'g'risidagi o'y-hayollari va bularni she'rda aks etganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, mazkur qo'shiqqa O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, taniqli kompozitor, professor Rustam Abdullayev ham musiqa bastalagan. Kompozitorning "Sadoqat" operasida Hamid Olimjon obrazining ariyasida ushbu qo'shiq kiritilgan.

Eng gullagan yoshlik chog'imda,

Sen ochilding ko'ngil bog'imda,

Shunda ko'zim ko'rdi bahorni,

Shunda qalbim tanidi yorni.

Shoirning "O'rik gullaganda" she'ri ham mashhur bo'lib, Manas Leviyev tomonidan musiqasi bastalangan. Ma'lumotlarga qaraganda, 1937-yilning mart oyida Hamid Olimjon sobiq O'zbekiston SSSRning hukumat delegatsiyasi tarkibida Qozog'istonga borgan. U yerda tashkil etilgan tantanali tadbirda ishtirok etib, "Qozog'iston" nomli mashhur she'rini yozgan va omma oldida o'qib bergan. Shoir Qozog'istonda bo'lib turgan vaqtda, respublikaning o'sha vaqtdagi poytaxti bo'lgan Olmaota shahrini qalin qor qoplagan. Mart oyi oxirlarida Toshkentga qaytgan va hovlisida ekilgan o'rikning gullaganini ko'rib, mashhur "**O'rik gullaganda**" she'rini yozgan. Ushbu she'r qo'shiqqa aylantirilgandan so'ng, hanuzgacha tadbir, bayramlarda xonandalar tomonidan ijro etib kelinmoqda. Qo'shiqning ilk ijrochilaridan biri Muhabbat Shamayevadir. Shuningdek, mazkur qo'shiq Nasiba Abdullayeva, Malika Egamberdiyeva kabi taniqli xonandalar tomonidan ham ijro etilgan.


Novdalarni bezab g'unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Shoirning nafaqat she'rlari balki yaratgan dostonlari ham xalqimiz orasida mashhur. Jumladan, 1938-yilda yozilgan "Zaynab va Omon" dostoni bunga misol bo'la oladi. Vaqt o'tib kompozitorlar Tolibjon Sodiqov va Boris Zeydman hamkorlikda doston asosida "**Zaynab va Omon**" operasini yaratgan. Opera librettosi Hamid Olimjonning rafiqasi, o'zbek shoirasi Zulfiyaxonim tomonidan yozilgan. Shuningdek, shoira operaga yangi she'rlar yozib kiritgan. Kompozitor operani yakuniga yetkazolmay qolgan va Yunus Rajabiy, Doni Zokirov va Boris Zeydman davom ettirib, 1958-yilda tugallangan. Opera shu yilning o'zida Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida ilk bor sahnaga qo'yilgan. Quyida opera nomerlaridan parcha keltirilgan:

"Xor va yakkaxonlar bilan ommaviy raqs"

Yondi qiz yanoqlari baxt bilan,
O't olov nigohlari baxt bilan,
Bitdi butun ohlari baxt bilan.
Shod yashang baxtli yashang shod yashang.

Ikki yosh sevgi bilan baxtiyor,
Dilda yo'q qayg'ulardan hech g'ubor jon,
Partiya davlatimiz sizga yor
Shod yashang baxtli yashang shod yashang.



Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Hamid Olimjon o'zining boy ijodiy merosi bilan o'zbek adabiyotining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Uning lirik va epik asarlarida milliylik, badiiy mahorat, hayotga bo'lgan yuksak mehr va sadoqat o'z aksini topgan. Shoir vatanparvarlik, insonparvarlik, muhabbat, go'zallik va ezgulik kabi xislatlarni o'ziga xos poetik uslubda yaratib, adabiyotning yangi bosqichga ko'tarilishiga hissa qo'shgan. Hamid Olimjon yaratgan asarlardagi badiiy obrazlar, milliy qadriyatlarning badiiy talqini yosh avlodning o'rnak olishi uchun kerakli manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Uning yozgan she'rlari, dostonlari asosida yaratilgan musiqiy asarlar ham

mashhurlik darajasiga ko'tarilgan desak mubolag'a emas. Qo'shiqlar turli tadbir va bayramlarda hanuzgacha ijro etilib, xalqimiz orasida mashhurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1."Hamid Olimjon merosi" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami.T.,2020
- 2.T.Sodiqov , B.Zeydman "Zaynab va Omon" opera klavir 439-500-b
- 3.A.Oripov Maftunkor she'riyat. H.Olimjon tanlangan asarlar. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.T., 2019
- 4.A.H.Jabborov "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari" ma'lumotnoma-T.,2015